



ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERAFAOL METODLARNING AHAMIYATI

Qo'ziboyeva Muhayyo Sul-tonqulovna

Navoiy viloyati Navbahor tumani XTBga qarashli

4-umumiy o'rta ta'lim maktabining Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarini tashkil etishda interfaolmetodlarning ahamiyati haqida qisqacha fikr-mulohazalar keltirildi.

Kalit so'zlar: Aqliy hujum, Bumerang, Galereya, Zig-zag, Zinama-zina, Muzyorar, Rotastiya, Yumaloqlangan qor, Baliq skeleti.

Bugungi kunda fan, madaniyat, axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanib borayotgan mamlakatimizda ta'limni rivojlantirisheng asosiy masalaga aylanib bormoqda.

Bugun ona tili kirib bormagan biror soha yo'q, har bir fan, albatta, ona tili bilan uzviy bog'liq. Ushbu fanga o'quvchini qiziqtirish, rejada berilgan mavzularni to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash pedagogning vazifasi sanaladi. Pedagog kutilayotgan natijaga erishish uchun avvalo darsni rejalashtirishi yoki loyihalashtirishi lozim bo'ladi. Darsni loyihalashtirishda quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz.

Pedagogik jarayonni loyihalashda:

1. Pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
2. Natijalarni oldindan ko'ra bilish;
3. Rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi. Bu bosqichda o'qituvchining mustaqil, shu bilan birga o'quvchi bilan hamkorlikda o'quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan faoliyati yetakchi o'rin tutadi. Loyihalar predmet va uning yo'nalishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirishda, ularda milliy iftixor tuyg'usini tarkib toptirishda ona tilining o'rni beqiyos. Zero birinchi prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek: "Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, una'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi..."

Darhaqiqat, ona tili ma'naviyat belgisi, va bu ma'naviyatni targ'ib etishda ona tili fanio'qituvchilarining o'rni beqiyos. Bugungi kunda har bir fan o'qituvchilari ilg'or tajriba, fanyutuqlari bilan qurollangan bo'lishi kerak.

Ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish masalasita'lim tizimimizda ilmiy nuqtai nazardan hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ayniqsa, ona tilini o'rganish jarayonida nutqiy barkamollikni ta'minlashning ilmiy-pedagogik asoslarini yaratish tobora ko'proq hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda.



Ona tilini o'quvchi nutqidagi ahamiyati beqiyos ekan, demak, uni ilmiy nuqtainazardan o'rganish ham muhimdir. Hayotimizda sodir bo'layotgan buyuk o'zgarishlar, qudratli islohotlar jarayoni, uzluksiz ta'lim tizimidagi innovatsiyalarning shiddatli ravishdajadallashuvi nutq o'stirish, keng mushohada qilish qobiliyatini shakllantirish muammolarinivujudga keltirmoqda.

O'qituvchi ona tili mashg'ulotlarini shunday tashkil etmog'i lozimki, dars jarayonidabajariladigan topshiriqlarning 35-40 foizini yozma topshiriqlar, qolgan qismini og'zakiharakterdagi topshiriqlar tashkil etmog'i lozimi. O'quvchilar muayyan bir mavzuni turlishakllarda bera bilish, o'z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda ifodalay olish ko'nikmalariniegallash orqali ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi kerak. Demak, eshitish, anglash, mulohaza yuritish, kuzatish, izlanish, sharhlash, qiyoslash, umumiylik va farqlarnianiqlash, hukm (xulosa) chiqarish, aloqadorlikni aniqlash, nutqda qo'llash kabi eng muhimmetodik usullardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish judamuhimdir. Ta'lim jarayonidainterfaol usullar, innnovatsion texnologiyalar, pedagogik vaaxborot texnologiyalarini qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday usul o'quvchilarni tayyor bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Bugungi kunda interfaol metodlarni 3-guruhga ajratishadi.

Interfaol metodlar: "Keys-stadi"(yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va b.

Interfaol ta'lim strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va bosh. Interfaol ta'limmetodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishgayondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bustrategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularningorasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venndiagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaolgrafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafikshakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlarbilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularningorasida boshqa farqlar yo'q.

Yuqoridagi metod va texnologiyalardan o'rinli foydalana olish esa har biro'qituvchining metodikasi va uslubiga bog'liqdir

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, bugungi kunning o'qituvchi va o'quvchisigatalablar mezoni tamoman boshqachadir. U shunchaki savodi, bilimi va qobiliyati bilanajralib turuvchi emas, balki ishbilarmon va tashkilotchi, ijodkor, o'z bilim va malakalarini hayotning murakkab sharoitlarida mohirona qo'llay oluvchi, yuksak madaniyatli bo'lmog'I lozim. O'qituvchi uchun vaqt-sinov, har bir dars-tajriba, erishilgan natija-saboq, ta'lim tarbiyada qo'yilgan ta'mal toshiesa, kelajakdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiy Ta'lim muommolari. B To'xliyev. F.f dok-ri professor. 2012-yil.
2. G'afforova T., Shodmonova E., "Ona tili o'qitish metodikasi" - T-2016
3. Qosimova K, Fuzailov S, Ne'matova A. Ona tili metodikasi - T-2014